

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

2026
mart

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Iloxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT WEEK UZBEKISTAN 2025: MILLIY TEXNOLOGIYALAR HAFTALIGINING YAKUNLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IT- EKOTIZIMIGA TA'SIRI	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI VAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSIYALARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKIOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



DAVLAT SEKTORIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	80
Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLIIYASI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	84
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	
MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	87
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MOLIIYAVIY INKLYUZIYANI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	90
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li	
NOMODDIY AKTIVLAR AUDITIDA RISKLARNI BAHOLASH VA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	93
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQI AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA XALQARO AUDIT STANDARTLARI (ISA) KONTEKSTIDAGI TALQINI	96
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
INNOVATSION RIVOJLANISHDA MEHNAT RESURSLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	98
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
THE IMPACT OF INFLATION AND EXTERNAL ECONOMIC SHOCKS ON THE NATIONAL ECONOMY.....	102
Suvonov Tolmasjon Faxritdinovich	
REWARD SYSTEMS AND EMPLOYEE PRODUCTIVITY IN HIGHER EDUCATION.....	105
Sultonboyeva Munira Bahodirovna, Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
THE DIGITAL CATALYST: HOW TECHNOLOGICAL ACCESSIBILITY DRIVES GLOBAL TOURISM.....	110
Freshta Qayoumi	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH ORQALI KORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	112
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
ASSESSMENT AND ANALYSIS OF INVESTMENT EFFICIENCY BY REGION IN UZBEKISTAN	115
Otajonova Charoskhon Polvonkuli qizi	
УЗВЯМОСТИ АРІ В ЦИФРОВЫХ ПЛАТЕЖНЫХ СЕРВИСАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОНЛАЙН ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ	120
Садыков Азиз Миршарапович	
РАЗВИТИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	124
Валижонов Х.А.	
O'YINCHOQ ISHLAB CHIQRARISHDA IMPORTGA QARAMLIKNI KAMAYTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY USULLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	127
Aminov Anvarxon Kazimovich	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	130
Гимранова О. Б.	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR VA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI BAHOLASH	134
To'rayev Jasurali To'rayevich	
РОЛЬ СИТУАЦИОННОГО ЦЕНТРА В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОГО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	137
Омонов Олим Муродуллаевич	



IMPROVEMENT OF MANAGEMENT MECHANISMS FOR INCREASING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS.....	140
To'rayev Jasurali To'rayevich	
DEVELOPMENT OF MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES IN THE MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF SMALL INDUSTRIAL ZONES	144
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
ISSUES OF IMPROVING THE MANAGEMENT OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT.....	147
To'rayev Jasurali To'rayevich	
ISSUES OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF MANAGEMENT OF SMALL INDUSTRIAL ZONES.....	150
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARINING CHEGARAVIY QIYMATLARINI BELGILASH MASALALARI.....	153
Islamov Anvar Ashirqulovich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA APPLICATIONS IN UNIVERSITY MANAGEMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	156
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH	160
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF PRODUCTION COMPETITIVENESS IN TEXTILE ENTERPRISES AND THE ECONOMIC MECHANISMS OF ITS FORMATION.....	164
Xushvaqto'v Shuhrat Abduraufovich	
FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING COMMERCIAL BANK AUDITS AND ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN.....	166
Ibragimov Nodirbek Baxodir ugli	
PROBLEMS IN COMMERCIAL BANK AUDIT PRACTICE AND DIRECTIONS FOR THEIR SOLUTION.....	168
Ibragimov Nodirbek Baxodir ugli	
IMPLEMENTATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT PRINCIPLES IN ECO-FRIENDLY HOTELS.....	170
Dilfuza Igamberdievna Abidova	
OPPORTUNITIES FOR APPLYING NATURAL RESOURCE CONSERVATION TECHNOLOGIES IN HOTEL MANAGEMENT.....	173
Dilfuza Igamberdievna Abidova	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	177
A.Y. Mardanov	
РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В РАЗВИТИИ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА(НА ПРИМЕРЕ АО «МАХАМ-ШИРЧИҚ»)	180
Хайдарова Камола Ахинжанована	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	183
Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li	
ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАСЧЕТ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗАТРАТ НА СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	185
Асадова Мафтуна Саъдуллаевна	



IMPROVING THE ECONOMIC POTENTIAL OF OIL AND GAS INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: MODERN CHALLENGES AND DEVELOPMENT PROSPECTS	188
Bekmuhamedova Malika Iskandarbekovna	
ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	191
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	193
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВОВЛЕЧЕНИЯ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ	195
Ережепов Куанышбай	
KORXONALAR DAROMADLARI VA XARAJATLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	198
Aymuxammedova Amina Kakajanovna	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	201
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
KNOW YOUR CUSTOMER MECHANISMS AS A TOOL FOR ENHANCING RISK MANAGEMENT SYSTEMS IN COMMERCIAL BANKS	204
Sherzod Fayziyev	
ТЕОРЕТИКО-НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	208
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI VAHOLASHDA XALQARO TAJRIBANING AHAMIYATI	213
Islamov Anvar Ashirqulovich	
IMPROVING THE MECHANISMS FOR THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE INDUSTRIAL SECTOR BASED ON STRUCTURAL CHANGES AND INFRASTRUCTURAL FACTORS	217
Ne'matov Shokhrukhbek Mamurjon o'g'li	
THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN AGRICULTURE AND ITS IMPROVEMENT	220
Komaliddin Yusupov	
AVIAYUK ZANJIRIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) MEKANIZMI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON UCHUN INSTITUTIONAL MODEL.....	224
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	



UDK: 656.7:334.723(575.1) AVIAYUK ZANJIRIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) MEXANIZMI: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN INSTITUTIONAL MODEL

Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
«Biznes boshqaruvi» kafedrası tayanch doktoranti
E-mail: mrs.anvarova@gmail.uz

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi aviatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi hamda uning asosiy modellari (BOT, BOO, BOOT, DBFO va konsessiya) qiyosiy keys-tahlil va institutsional yondashuv asosida o‘rganiladi. To‘rtta yirik xalqaro aeroport — Istanbul, Bengaluru, Manila-NAIA va Amman-Queen Alia misolida moliyalashtirish tuzilmasi, risklarning taqsimlanishi va erishilgan natijalar tahlil qilinadi. O‘zbekistonning 2019-yilgi O‘RQ-537-son qonuni va 2023–2025-yillardagi islohotlari asosida Yangi Toshkent hamda Urganch aeroportlari bo‘yicha DXSh loyihalari baholanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi aviayuk DXSh zanjirining subkontrakt ekotizimini kichik va o‘rta tadbirkorlik uchun institutsional kirish nuqtasi sifatida modellashtirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik, aviayuk zanjiri, konsessiya, BOT modeli, aeroport infratuzilmasi, kichik tadbirkorlik, subkontrakt, institutsional model.

Abstract. This paper examines the public-private partnership (PPP) mechanism and its principal models (BOT, BOO, BOOT, DBFO and concession) in the modernisation of aviation infrastructure, applying a comparative case analysis and an institutional approach. The financing structure, risk allocation and outcomes are analysed through four major international airports — Istanbul, Bengaluru, Manila-NAIA and Amman-Queen Alia. On the basis of Uzbekistan’s 2019 Law No. LRU-537 and the 2023–2025 reforms, the PPP projects of the New Tashkent and Urgench airports are assessed. The scientific novelty lies in modelling the subcontracting ecosystem of the air-cargo PPP chain as an institutional entry point for small and medium-sized enterprises.

Keywords: public-private partnership, air cargo chain, concession, BOT model, airport infrastructure, small business, subcontracting, institutional model.

Аннотация. В настоящих тезисах на основе сравнительного кейс-анализа и институционального подхода исследуется механизм государственно-частного партнёрства (ГЧП) и его основные модели (BOT, BOO, BOOT, DBFO и концессия) в модернизации авиационной инфраструктуры. На примере четырёх крупных международных аэропортов — Стамбул, Бенгалуру, Манила-NAIA и Амман-Queen Alia — анализируются структура финансирования, распределение рисков и достигнутые результаты. На основе Закона № ЗРУ-537 (2019) и реформ 2023–2025 годов оцениваются проекты ГЧП Нового аэропорта Ташкента и аэропорта Ургенча. Научная новизна состоит в моделировании субподрядной экосистемы авиагрузовой цепочки ГЧП как институциональной точки входа для малого и среднего предпринимательства.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, авиагрузовая цепочка, концессия, модель BOT, аэропортовая инфраструктура, малое предпринимательство, субподряд, институциональная модель.

KIRISH

Havo transporti orqali yuk tashish jahon savdosining eng kapital talab qiluvchi bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, uning samaradorligi bevosita aeroport infratuzilmasi — yuk terminallari, muzlatgichli omborlar va yer usti xizmatlari sifatiga bog‘liqdir. Bunday obyektlarni barpo etish va yangilash uchun talab qilinadigan mablag‘ hajmi ko‘pincha davlat budjeti imkoniyatlaridan yuqori bo‘ladi. «O‘rta yo‘lak» tranzit salohiyatining o‘sib borayotgani sharoitida



budjet cheklovlari xususiy kapital va boshqaruv tajribasini jalb qilish imkonini beruvchi davlat-xususiy sheriklik mexanizmlariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Jahon amaliyotida aeroport infratuzilmasini rivojlantirishda DXSh mexanizmlaridan keng foydalaniladi: BOT, BOO, BOOT, DBFO va konsessiya modellari orqali o'nlab yirik xalqaro aeroportlar xususiy investitsiya hisobidan modernizatsiya qilingan.

Ushbu tadqiqot muallifning «Havo transporti orqali yuk tashishda kichik tadbirkorlik shakllaridan foydalanish» mavzusidagi dissertatsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. DXSh yirik miqyosli loyiha bo'lishiga qaramay, har bir aeroport DXShi o'z atrofida keng subkontrakt ekotizimini — yer usti xizmati (handling), yuk terminali operatsiyalari, bort ovqatlarini tayyorlash va yetkazib berish xizmati, texnik xizmat ko'rsatish (MRO) va raqamli xizmatlarni shakllantiradi; aynan shu zanjir kichik va o'rta tadbirkorlik uchun loyihaga kirishning real institutsional nuqtasi vazifasini bajaradi. Tadqiqotning maqsadi — xalqaro tajriba tahlili asosida O'zbekiston sharoitiga mos aviayuk DXSh modelini hamda unda kichik tadbirkorlikni jalb etish mexanizmlarini asoslashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy keys-tahlil, institutsional yondashuv va qonunchilikni kontent-tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ilmiy yangilik aviayuk DXSh zanjirining subkontrakt ekotizimini kichik biznes uchun institutsional kirish nuqtasi sifatida modellashtirilishida namoyon bo'ladi.

DXShning nazariy-uslubiy asoslari xorijiy iqtisodiy adabiyotda atroflicha ishlab chiqilgan. E.R. Yescombe DXShni loyiha moliyalashtirish (project finance) nuqtai nazaridan tahlil qilib, tavakkalchiliklarni sheriklar o'rtasida optimal taqsimlash tamoyilini asosiy mezon sifatida ilgari suradi¹; D. Grimsey va M.K. Lewis esa davlat kafolatlari va shartnoma tuzilmalarining ahamiyatini asoslaydi². Xalqaro tashkilotlarning uslubiy hujjatlari — Jahon banki «PPP Reference Guide», ADB «PPP Handbook» va ICAO Doc 9980 — DXSh loyihalarini tayyorlash hamda monitoring qilishning standartlashtirilgan yondashuvlarini belgilaydi³. Aeroport DXShiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar orasida D. Gillen mulkchilik shakllari evolyutsiyasini⁴, T.H. Oum va hammualiflar mulkchilik shakli hamda samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni⁵, A. Graham esa aeroportlarni boshqarishning xalqaro amaliyotini⁶ tadqiq etadi. Shu bilan birga, aviayuk (cargo) DXSh zanjirida kichik tadbirkorlikning subkontrakt orqali ishtiroki masalasi adabiyotda yetarlicha yoritilmagan — bu tadqiqotning ilmiy bo'shlig'ini belgilaydi.

DXSh — davlat organi va xususiy sherik o'rtasida infratuzilma obyektini yaratish yoxud modernizatsiya qilish hamda undan foydalanish bo'yicha uzoq muddatli (odatda 15–35 yil) shartnomaviy munosabat bo'lib, uning mohiyati tavakkalchilik va mas'uliyatni har bir tomonning uni samaraliroq boshqara olish qobiliyatiga qarab taqsimlashdan iborat. Aviatsiya sohasida quyidagi modellar keng qo'llaniladi: BOT (qurish–boshqarish–davlatga qaytarish; yangi terminallar uchun), BOO (egalik bilan cheksiz muddatli boshqarish; cargo obyektlari), BOOT (egalik va so'ngra davlatga o'tkazish; yirik majmualar), DBFO (loyihalash–qurish–moliyalashtirish–boshqarish, mulk davlatda qoladi) hamda konsessiya (mavjud obyektini ijaraga olib, daromad ulushi asosida boshqarish).

Istanbul aeroporti (Turkiya). 2013-yilda o'tkazilgan tenderda beshta turk qurilish kompaniyasi birlashmasi — İGA (Cengiz, Mapa, Limak, Kolin va Kalyon) BOT modeli asosida aeroportni 25 yil muddatga boshqarish huquqini qo'lga kiritdi. G'olib konsorsium davlatga 25 yil davomida jami 22,15 mlrd yevro ijaraga to'lash majburiyatini oldi (yiliga taxminan 1,1 mlrd yevro), loyihaning investitsiya qiymati esa qariyb 10,2 mlrd yevroni tashkil etdi. Ushbu modelda qurilish va bozor tavakkalchiliklarining asosiy qismi xususiy sherik zimmasiga taqsimlangan, davlat uchun esa ijaraga daromadlari nazarda tutilgan. Loyiha natijasida yirik xalqaro aviatsiya markazi barpo etilgan⁷.

Kempegowda xalqaro aeroporti, Bengaluru (Hindiston). Aeroport maxsus loyiha kompaniyasi — Bangalore International Airport Limited (BIAL) tomonidan BOOT modeli asosida boshqariladi; konsessiya muddati 30 yil bo'lib, yana 30 yilga (2068-yilgacha) uzaytirish imkoniyati nazarda tutilgan. Kapital taqsimoti DXShning klassik namunasidir: xususiy sheriklar 74% (Fairfax India — 64%, Siemens Project Ventures — 10%), davlat esa 26% (AAI — 13% va KSIIDC — 13%) ulushga ega. Kompaniya 2026–2030-yillarda tashuv quvvatini yiliga 80–85 mln yo'lovchiga yetkazishni rejalashtirmoqda. Model davlatga muhim boshqaruv qarorlarida ishtirok etish imkonini

1 Yescombe E.R. *Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance*. – Oxford : Butterworth-Heinemann, 2007. – 350 p.

2 Grimsey D., Lewis M.K. *Public Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision and Project Finance*. – Cheltenham : Edward Elgar, 2004. – 268 p.

3 *Public-Private Partnerships Reference Guide. Version 3.0*. – Washington, DC : World Bank Group, 2017. – 226 p.; *Public-Private Partnership Handbook*. – Manila : Asian Development Bank, 2008. – 100 p.; *Manual on Privatization in the Provision of Airports and Air Navigation Services (Doc 9980)*. – Montreal : ICAO, 2013.

4 Gillen D. The evolution of airport ownership and governance // *Journal of Air Transport Management*. – 2011. – Vol. 17, № 1. – P. 3–13.

5 Oum T.H., Adler N., Yu C. Privatization, corporatization, ownership forms and their effects on the performance of the world's major airports // *Journal of Air Transport Management*. – 2006. – Vol. 12, № 3. – P. 109–121.

6 Graham A. *Managing Airports: An International Perspective*. – 4th ed. – Abingdon : Routledge, 2014. – 384 p.

7 İGA Istanbul Airport : About / Investor materials [Elektron resurs]. – URL: <https://www.igairport.aero> (murojaat sanasi: 07.07.2026).

saqlagan holda xususiy kapital va boshqaruv tajribasini jalb etishga xizmat qiladi⁸.

Ninoy Aquino xalqaro aeroporti, NAIA (Filippin). 2024-yil 18-martda San Miguel boshchiligidagi konsorsium (New NAIA Infrastructure Corp., Koreya Incheon korporatsiyasi ishtirokida) mavjud aeroportni konsessiya (ROT) modeli asosida 15 yilga, yana 10 yilga uzaytirish sharti bilan boshqarishga oldi. Loyihaning umumiy qiymati 170,6 mlrd Filippin pesosini tashkil etadi; konsorsium davlatga daromadning 82,16% ulushini hamda 30 mlrd peso miqdorida oldindan to'lovni taklif qildi. Loyiha aeroport quvvatini 35 mln yo'lovchidan 62 mln yo'lovchiga oshirishni ko'zda tutadi. Ushbu misol mavjud (brownfield) aeroportni davlat mulkchiligini saqlagan holda modernizatsiya qilishning namunasidir⁹.

Queen Alia xalqaro aeroporti, Amman (Iordaniya). 2007-yilda Airport International Group (AIG) konsorsiumi — Aéroports de Paris Management va Meridiam yetakchiligidagi — 25 yillik BOT konsessiyasini qo'lga kiritdi; umumiy DXSh reja qiymati taxminan 850 mln AQSh dollari, yangi terminal qurilishiga esa qariyb 750 mln dollar sarflandi. Davlat aeroport mulkiga egaligini saqlab qoldi va yalpi daromadning taxminan 54,5% ulushini oldi; 2018-yilda Groupe ADP AIG ustidan nazorat ulushini (51%) qo'lga kiritdi. Jahon banki va IFC materiallarida ushbu loyiha Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasidagi DXSh amaliyotining ijobiy misollaridan biri sifatida baholanadi¹⁰.

O'zbekistonda DXShning huquqiy asosi 2019-yil 10-maydagi O'RQ-537-son «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi qonun bilan yaratildi (2021-yilda unga o'zgartirishlar kiritildi)¹¹. Dastlab 2018-yilda Moliya vazirligi huzurida DXShni rivojlantirish agentligi tashkil etilgan bo'lsa, 2022-yilda uning vakolatlari Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o'tkazildi. 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son qaror «2024–2030-yillarda DXShni rivojlantirish chora-tadbirlari»ni tasdiqlab, vazirlik tarkibida DXSh loyihalari markazini tashkil etdi¹²; 2024-yil 30-oktabrdagi 720-son qaror esa sohani kompleks tizimlashtirdi va 2025-yil 1-aprelga qadar qonunga xalqaro tajriba asosida o'zgartirishlar tayyorlash vazifasini belgiladi¹³.

Aviatsiya sohasida DXSh amalda joriy etila boshlandi. 2025-yil oktabrida qurilishi boshlangan Yangi Toshkent xalqaro aeroporti mintaqadagi yirik aviatsion DXSh loyihalaridan biri hisoblanadi: konsorsium tarkibiga Vision Invest (45%), Sojitz (30%), Incheon (15%) va Uzbekistan Airports (10%) kiradi; loyiha 1 310 gektar maydonda 2026–2030-yillarda barpo etilib, 35 yillik konsessiya asosida boshqariladi, birinchi bosqich qiymati taxminan 2,5 mlrd dollarni, loyihalashtirilgan quvvat esa yiliga 20 mln yo'lovchi va 129 000 tonna yukni tashkil etadi. Urganch xalqaro aeroporti esa 140 mln dollarlik 19 yillik DXSh doirasida Incheon korporatsiyasiga topshirildi (2025-yil): Bunda yangi yuk terminali va yer usti xizmatlarining DXSh loyihasi tarkibiga kiritilishi aviayuk subkontrakt ekotizimini rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi¹⁴.

Yirik DXSh operatori (konsessioner), qoida tariqasida, yordamchi xizmatlarni subkontrakt asosida mahalliy tashkilotlarga topshiradi — aynan bu zanjir kichik biznes uchun loyihaga kirish nuqtasi vazifasini bajaradi. Aviayuk zanjirida kichik tadbirkorlik quyidagi yo'nalishlarda ishtirok etishi mumkin: yer usti xizmati va yukni qayta ishlash (ground handling), yuk terminali hamda muzlatgichli ombor operatsiyalari, catering, texnik xizmat ko'rsatish (MRO) subkontraktlari va raqamli xizmatlar (yuk kuzatuv, elektron hujjat aylanishi, IT yechimlar). Bu ishtirok subkontrakt, klaster va franchayzing mexanizmlari orqali institutsionallashtiriladi; barqarorlikni ta'minlash uchun DXSh shartnomasiga «Mahalliy ishtirok talabi» bandini kiritish yirik loyihalarning iqtisodiy ta'siridan mahalliy tadbirkorlik subyektlarining foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositalardan biri bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik tadbirkorlikni DXSh zanjiriga jalb qilish uchun quyidagi institutsional chora-tadbirlar tavsiya etiladi: (1) aviatsion DXSh shartnomalariga «mahalliy ishtirok talabi» bandini kiritish; (2) aeroport atrofida logistika-kargo klasterini tashkil etib, kichik operatorlarga imtiyozli kirish sharoitini yaratish; (3) subkontrakt tanlovlari uchun shaffof raqamli platforma joriy qilish; (4) DXSh qonunini takomillashtirishning 2025-yildagi bosqichida

8 Oum T.H., Adler N., Yu C. Ko'rsatilgan asar; Graham A. Ko'rsatilgan asar.

9 NAIA Public-Private Partnership Project [Elektron resurs] // PPP Center of the Philippines. – URL: <https://ppp.gov.ph> (murojaat sanasi: 07.07.2026).

10 Groupe ADP acquires the exclusive control of Airport International Group, concessionary of Queen Alia International Airport in Amman, Jordan : press release, 19.04.2018 [Elektron resurs]. – URL: <https://presse.groupeadp.fr> (murojaat sanasi: 07.07.2026).

11 Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida : O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 10.05.2019 y., № O'RQ-537 [Elektron resurs] // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4329270> (murojaat sanasi: 07.07.2026).

12 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 30.08.2024 y., № PQ-308.

13 Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida : O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 30.10.2024 y., № 720 [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7180726> (murojaat sanasi: 07.07.2026).

14 Uzbekistan Airports signs PPP agreements for New Tashkent International Airport and Urgench Airport, 2025 [Elektron resurs]. – URL: <https://www.uzdaily.uz>; <https://www.trend.az> (murojaat sanasi: 07.07.2026).



subkontrakt ekotizimi hamda kichik va o'rtta biznes ishtiroki bo'yicha me'yorlarni mustahkamlash; (5) handling va MRO sohalarida franchayzing va sertifikatlash tizimini rivojlantirish. Shu tariqa DXShning subkontrakt ekotizimi kichik tadbirkorlik subyektlarining aviayuk sohasida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishi hamda aviatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonida inklyuziv iqtisodiy o'sishga ko'maklashishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yescombe E.R. Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. — Oxford: Butterworth-Heinemann, 2007. — 350 p.
2. Grimsey D., Lewis M.K. Public Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision and Project Finance. — Cheltenham: Edward Elgar, 2004. — 288 p.
3. World Bank Group. Public-Private Partnerships Reference Guide. Version 3.0. — Washington, DC: World Bank Group, 2017. — 238 p.
4. Asian Development Bank. Public-Private Partnership Handbook. — Manila: Asian Development Bank, 2008. — 100 p.
5. International Civil Aviation Organization. Manual on Privatization in the Provision of Airports and Air Navigation Services. Doc 9980. 1st ed. — Montreal: ICAO, 2012. — 46 p.
6. Gillen D. The evolution of airport ownership and governance // Journal of Air Transport Management. — 2011. — Vol. 17, No. 1. — P. 3–13. — DOI: 10.1016/j.jairtraman.2010.10.003.
7. Oum T.H., Adler N., Yu C. Privatization, corporatization, ownership forms and their effects on the performance of the world's major airports // Journal of Air Transport Management. — 2006. — Vol. 12, No. 3. — P. 109–121.
8. Graham A. Managing Airports: An International Perspective. 4th ed. — Abingdon: Routledge, 2013. — 344 p.
9. İGA İstanbul Airport. A New Airport Experience: Sustainability Report 2019. — URL: <https://www.igairport.aero/media/osapjfn3/surdurulebilirlik2019-en.pdf>
10. Fairfax India Holdings Corporation. Fairfax India Completes Acquisition of an Additional 10% Interest in Bangalore International Airport Limited. — 20.02.2025. — URL: <https://www.fairfaxindia.ca/press-releases/fairfax-india-completes-acquisition-of-an-additional-10-interest-in-bangalore-international-airport-limited-02-20-2025/>
11. PPP Center of the Philippines. SMC-SAP & Company Consortium Wins NAIA PPP Project. — 16.02.2024. — URL: https://ppp.gov.ph/press_releases/smc-sap-company-consortium-wins-naia-ppp-project/
12. International Finance Corporation. Queen Alia International Airport: The Role of IFC in Facilitating Private Investment in a Large Airport Project. EM Compass, Note 35. — Washington, DC: IFC, 2017. — URL: <https://www.ifc.org/content/dam/ifc/doclink/2017/queen-alia-international-airport-the-role-of-ifc-in-facilitating-private-investment-in-a-large-airport-project.pdf>
13. Groupe ADP. Groupe ADP Acquires the Exclusive Control of Airport International Group, Concessionary of Queen Alia International Airport in Amman. — 19.04.2018. — URL: <https://presse.groupeadp.fr>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston yirik aviatsiya markaziga aylanishni maqsad qilgan. — 15.10.2025. — URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8572>
15. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2026-yil I choragida davlat-xususiy sheriklik sohasida amalga oshirilgan ishlar. — 01.05.2026. — URL: <https://gov.uz/oz/imv/news/view/160374>
16. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi 2019-yil 10-maydagi O'RQ-537-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — 2019-yil 11-may. — 03/19/537/3113-son. — URL: <https://lex.uz/docs/-4329270>
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — 2024-yil 30-avgust. — 07/24/308/0677-son. — URL: <https://lex.uz/docs/-7089556>
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 30-oktabrdagi 720-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — 2024-yil 31-oktabr. — 09/24/720/0869-son. — URL: <https://lex.uz/docs/-7180726>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100